NAMANGAN VILOYATIDA MUZEYLAR TARAQQIYOTI

Xoljo'rayev Jahongir Ilhom o'g'li
Namangan davlat unversiteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada, Namangan davlat tarixi muzeyi, uning kelib chiqish tarixi, kechagi va buguni, viloyatdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda muzeylarning ahamiyati, yoshlar ongini oshirishda muzeylarning o'rni haqida ma'lumotlar aks ettirilgan.
Kalit so'zlar: Xalq muzeyi, davlat muzeyi, arxeologik muzey, eksponat, etnogirafik buyumlar, moddiy ashyolar, ma'naviy ashyolar.

РАЗВИТИЕ МУЗЕЕВ В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Холджораев - сын Джахангира Ильхома
Студент Наманганского государственного университета

Аннотация: В данной статье содержится информация о Музее истории Намангана Давида, его истории, прошлом и настоящем, значении музеев в духовно-просветительской работе в регионе, роли музеев, фиксирующих права молодежи.
Ключевые слова: Народный музей, государственный музей, археологический музей, экспонат, этнографические предметы, материальные предметы, духовные предметы.

DEVELOPMENT OF MUSEUMS IN NAMANGAN PROVINCE

Kholjo'rayev is the son of Jahangir Ilhom
Student of Namangan State University

Abstract: This article contains information about Namangan Davit History Museum, its history, past and present, the importance of museums in spiritual and educational work in the region, and the role of museums that record the rights of young people.

Key words: People's museum, state museum, archaeological museum, exhibit, ethnographic items, material items, spiritual items.

Hozirgi kunda muzeylar madaniy-tarixiy va tabiiy-ilmiy qadriyatlarni mushohada qilishga mo'ljallangan va o'zida ijtimoiy axborot institutini namoyon etadi. Muzeylar-moddiy ashyolarni axborot vositasida mushohada qilish, to'plash, tarqatish, jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiluvchi ixtisoslashtirilgan madaniy-ma'rifiy muassasa hisoblanadi. Muzeylar nafaqat tabiat va jamiyatning noyob va xilma-xil ashyolari xazinasi, balki muhim ilmiy ma'rifiy-tarbiyaviy markaz ham hisoblanadi.

Mustaqillik tufayli yurtimizda hukumatimiz tomonidan muzeylarga e'tibor yanada kuchaydi va ko'plab yangi yo'nalishdagi muzeylar ham ochildi. Muzeylarda xalqimiz tarixini o'rganish va yanada takomillashtirish kabi xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Namangan shahrining Nodim Namangoniy ko'chasida joylashgan Namangan viloyati tarixi va madaniyatini o'rganish davlat muzeyi o'zining sal kam bir asrlik tarixiga ega. Muzey shu yillar davomida viloyatning madaniy-ma'rifiy ishlarida o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. Namangan viloyatida 6 ta "Xalq" muzeyi va O'zbekiston Respublikasida ikkinchi o'rinda turuvchi Pop shahridagi "Arxeologiya" muzeyi va ko'plab uy muzeylar faoliyat olib bormoqda.

Namangan viloyati tarixi va madaniyatini o'rganish davlat muzeyi esa ular uchun asosiy uslubiy markaz hisoblanadi. Bu muzey keksa madaniyat maskani bo'lib, 1920-yil 20-avgustda tashkil topgan.

Muzey dastlab Namangan shahridagi 1-rus o'rta maktabi fizika o'qituvchisi Vladimir Ivanovich Ivanov tashabbusi bilan fanlarni chuqurroq o'rganish uchun labaratoriya tarzida tashkil etilgan edi. [1]

Bu muzeyga Turkiston oqsoqollari kengashi madaniyat bo'limi qaroriga asosan, XX asr boshidagi eng ko'rkam bino ajratib berildi.V.I.Ivanov rahbarligida har yili viloyatning cho'l, tog' zonalariga, Nanay, Mamay, Chodak, G'ova Kosonsoyga ilmiy ekskursiyalar uyushtirib, o'lkamiz tabiatiga, tarixiga, madaniyati va hunarmandchilik san'atiga oid buyumlar yig'ilib, ularga ishlov berib, muzeyni boyitib borildi. Natijada 1922-yilda muzey eksponatlari soni 900 taga yetadi. 1930-yilga kelib muzey xazina fondi 3000 taga yetdi[2]. 1970-yildan boshlab muzey ilmiy xodimlari xar bir urush qatnashchilari xonadonida bo'lib, orden, medallari, xat, surat va boshqa moddiy ashyolarni olib kelib,muzey eksponentlarini yanada boyitishadi. Dastlabki vaqtlarda I.Nizomboev, X.Zokirov, N.Axmedov, I.Malenkovlar muzeyni rivojlanib ketishi, eksponatlar bilan boyitilishida o'zining butun hayotini muzey hayoti bilan chambarchas bog'ladilar.

1920-1987-yillar mobaynida bir qavatli binoda faoliyat yuritgan bo'lsa, muzey 1987-yildan maxsus loyiha asosida qad roslagan 3 qavatli maxsus binoda faoliyat yuritmoqda. Muzey jamoasining say-harakatlari va samarali mehnatlarida erishilgan yutuqlar natijasida 1998-yildan boshlab 1-toifali muzeylar qatoridan o'rin oldi[3]. Muzeyning 2-qavatida 1989-yildan tabiat bo'limini ekspozitsion reja asosida jihozlash ishlari olib borildi va bu ishni viloyat rassomlar uyushmasining T.Ashurov boshchiligidagi musavvirlar guruhi zallarni bezadilar. Keyingi yillarda tabiat bo'limi ko'rgazma zallarini viloyatimiz tabiati,o'simlik va hayvonot dunyosi namunalari bilan jihozlash ishlarini amalga oshirishda E.Qoraboyev boshchiligidagi bir guruh ilmiy xodimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

2014-yil may oyiga kelib, muzey o'zida o'lka tarixi madaniyati, hunarmandchiligi, irrigatsiyasi, san'atini namoyon etuvchi 55239 dona eksponatni tashkil qiladi.

Hozirgi kunda Namangan viloyat o'lkani o'rganish muzeyida "Tabiat", "Tarix", "Adabiyot va san'at", "Xazina" bo'limlari va "Ma'naviyat", "Mustaqillik" sektorlari faoliyat yuritmoqda.

Har qanday tashkilot taraqqiyotida rahbar yuritgan boshqaruv katta ahamiyatga ega hisoblanadi. 2004-yilda muzeyga tarix fanlari doktori, professor I.Yusupov rahbar etib tayinlanadi. Professorning tashabbusi bilan tamomila o'lka tarixi etnografiyasi, mustaqillik yillarida Namangan ko'rgazmalari hozirgi zamon ruhi talabiga javob beradigan yangi ekspozitsiyalar yaratildi va ziyoratchilarga namoyon etilib ijobiy fikrlar olinmoqda[4]. Muzeyni aylanar ekansiz Tabiat bo'limi o'quvchi yoshlarning eng sevimli bo'limi hisoblanadi va bu yerda o'lkamizning tuproqlari, suvi, o'simlik dunyosi, tog'lari, parranda-yu qushlari bilan tanishasiz. Bu bo'limda bo'ri, tulki, burgut, kaltakesak, sariq chipor ilon,tipratikan,yo'vvoyi to'ng'iz, jayra va cho'l o'simliklarini jonli qotishmasini uchratasiz. Eng qizig'i shundaki 2007-yilda Namangan shahridan taxminan balandligi 5 metr, uzunligi 8 metr bo'lgan hayvon bosh suyagi topildi.

Tarix bo'limida esa o'lkamizning eng qadimgi davridan shu kungacha ajdodlarimiz bosib o'tgan shonli yo'li tarixidan qimmatli ma'lumotga ega bo'lasiz. Bo'limda arxeolog olimlar tomonidan o'rganilish diogrammasiga va xaritasiga, ibtidoiy ajdodlar yashagan g'or ko'rinishi, ularning mashg'uloti, tosh asrini bo'linishi, mehnat va ov qurollari, Chust bronza davri manzillari va u yerdan topilgan mehnat qurollari, Qadimgi Koson, Pop Munchoqtepa yodgorligi, Axsikent, Buonamozor, Temuriylar davrida Axsikent va u yerdan topilgan zeb-ziynatlar bilan tanishasiz. Hatto miloddan avvalgi III-II asrlarga oid eng qadimiy topilma hisoblanadigan Yunon-Baqtriya tangalari ham saqlanib kelinmoqda. Tarix bo'limda etnografiya bo'limi bo'lib, unda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan turli xil sopol, chinni, yog'och va misdan yasalgan uy anjomlari,o'zbek milliy cholg'u asboblari, milliy kiyimi, o'zbek milliy uyi va hovlisi ko'rinishi yaratilgan.

Adabiyot va san'at bo'limi zalida o'lkamizning kulolchilik maktabi asarlari, naqqoshlik san'ati ustalari, mahsulotlari, kashtachilik va hozirgi zamon musiqa, teatr san'ati vakillari faoliyatini ko'rish bilan ma'naviy ozuqa olasiz. Bu bo'lim muzeyda tez-tez ziyoratchi mehmonlar, muntazam tadbirlar o'tkazilishi bilan o'zgacha taassurot qoldiradi.

Muzeyning ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy ishlarida Ma'naviyat bo'limining o'rni alohida.Ma'naviyat bo'limi muzeyda tadbirlarni tashkillashtirish, mehmon va ziyoratchilarni kutib olish va ularga tanishtiruv, mavzuli o'quv ekskursiyalarni tashkillashtirish, xodimlar o'rtasida muzeyda va muzeydan tashqarida muloqot,suhbat uchrashuvlar tashkil qilish ishlarini bajaradi.

Xazina bo'limi muzeyning asosiy bo'limi hisoblanadi. U yerda o'lka tabiati, tarixi, madaniyati ajdodlarimizning hunarmandchilik san'atining tarixiy sirlarini ochib beruvchi nodir va noyob eksponatlar saqlanadi. Muzey xazina fondi yil davomida ilmiy xodimlarning say-xarakatlari orqali yangi-yangi eksponatlar bilan to'ldirib borilmoqda.

Mazkur muzeyning yoshlarimizga bugungi kunda berayotgan ma'naviy va tarixiy saboqlari biz yoshlarni ajdodlarimizni qanday mashaqqatli, sinovli yo'llarni bosib o'tganidan darak beradi.Yurtimizga qanchadan-qancha bosqinchilar hujum qilgan, lekin o'zbek xalqining milliy etnik konfliktlari yo'q bo'lib ketmadi. Tarix millatning o'tmishi, buguni va kelajagini o'rganadi muzey esa shularni bizga ko'rsatadi. Shuni alohida aytish kerakki, Namangan viloyati tarixi va madaniyatini o'rganish davlat muzeyi viloyatimizning aholisini, o'quvchi yoshlarini o'lkamiz tarixi, madaniyati, san'ati sirlarini o'rganishga imkon yaratadi. Shunday ekan bu nodir noyab tarixiy topilmalarni va etnografik buyumlarni to'plash, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda barchamizning muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaaliyev E. Namangan viloyat o`lkani o`rganish muzeyi: kecha va bugun. - Farg'ona: 2010
2. Baxriddinov O. Muzeylar-tariximiz guvohi – Namangan haqiqati. 2004, 10-mart.
3. Kuryazova D. O`zbekistonda muzey ishi tarixi. – Toshkent 2010.
4. www.ziyonet.com